

Taqrizchi: Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi p.f.b.f.d (PhD) I.M.Usmonaliyev

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS TASHKIL QILISHNING ILMIY ASOSLARI

Xudoyberganova Sevinchoy Urazmat qizi

Qo‘qon DPI iqtidorli talabasi

Email: xudoyberganova123@gmail.com

Tel: +998333294943

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars tashkil qilishning ilmiy asoslari hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta‘lim sohasidagi islohotlar, tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan fan–texnika talablari-ta‘lim usuli bilan jamityaning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoji o‘rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta‘limda boshqa yangi yondashuvlarni qo‘llash yo‘li bilan hal etish masalasi mazkur maqolaning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, metod, yondashuv, fan–texnika, ta‘lim, qadriyatlari, ma‘naviy yodgorlik.

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Худойберганова Севинчой Уразмат кизи

талантливый студент Кокан ГПИ

Электронная почта: khudoyberganova123@gmail.com

Телефон: +998333294943

Аннотация: В данной статье представлены некоторые мнения о научных основах организации уроков на основе современных педагогических технологий. Реформы в сфере образования, реализуемые в нашей стране, создали дисбаланс между быстро развивающимися научно-техническими потребностями и методикой обучения и потребностью общества в подготовке конкурентоспособных, высококвалифицированных кадров, формировании всесторонне развитого поколения. Проблема ее решения путем использования других новых подходов в образовании является основным механизмом данной статьи.

Ключевые слова: педагогическая технология, метод, подход, наука и техника, образование, ценности, духовный памятник.

SCIENTIFIC BASIS OF LESSON ORGANIZATION BASED ON MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Khudoyberganova Sevinchoy Urazmat kizi

talented student of Kokan SPI

Email: khudoyberganova123@gmail.com

Phone: +998333294943

Abstract: This article presents some opinions on the scientific basis of organizing lessons based on modern pedagogical technologies. Reforms in the field of education implemented in our country created an imbalance between the rapidly developing scientific and technical requirements and the educational method, and the need of the society to train competitive, highly qualified personnel and to form a well-rounded generation. The problem of solving it by using other new approaches in education is the main mechanism of this article.

Keywords: pedagogical technology, method, approach, science and technology, education, values, spiritual monument.

KIRISH. Milliy mustaqillik qo'lg'a kiritilishi bilan istiqbol yo'llarimiz, milliy g'oya va mafkuramiz aniq qilib belgilab olindi. Biz o'z ta'limi-tarbiyaviy maqsadimiz va vazifalarimiz, uni amalga oshirish dasturlarimizni belgilab oldik. Prezidentimizning ma'naviy mafkuraviy, barkamol avlodni voyaga etkazish borasida bir qator asarlarida ushbu yo'nalishdagi davlat siyosati ustivor masala ekanligi bir necha bor ta'kidlab o'tiladi. Bobokalonlarimizning azaliy orzulari, milliy va umumbashariy qadriyatlarini, ma'naviy yodgorliklar zamonaviy pedagogikaning maqsadi va vazifalarini shakllanishiga asos bo'lmoqda. Pedagogika fani va amaliyotida turli yondashuvlar qo'llaniladi. Bulardan biri an'anaviy yondashuv.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. An'anaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati o'qituvchi ma'lum axborotni, gapirib beradi, tushuntiradi, talaba esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Tulabada bilim bor-yo'qligi imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani asosan esda qoldirishning natijasidir, u ko'pina yuzaki bo'lshi ham mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. Talaba savol berilganda eslashi ba'zan eslay olmasligi ham mumkin.

An'anaviy o'qitish usulida ta'lim maqsadi dastur talabiga binoan aniq ifodalanmaydi, talabaning o'zlashtirish darajasi, sifati haqida muallim aniq tasavvurga ega bo'lmaydi. An'anaviy ta'lim mamlakatimizning o'quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jihatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan, katta tajriba to'plangan. An'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etayotir. Lekin uning ob'ektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan–texnika talablari-ta'lim usuli bilan jamityaning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR. An'anaviy ta'lim bir qator salbiy tomonlari mavjud. Ba'zan yosh o'qituvchilar va amaliyotga chiqqan talabalar faoliyatida darsni rejalashtirish sohasida xatolarga yo'l quyilganligining guvohi bo'lamiz. Yosh o'qituvchilar va talabalar faoliyatida yo'l qo'yilayotgan xatolarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Maqsadda aniqlikning yo'qligi. Ya'ni talabalar aslida nima qilishhlari va nimani o'rganishhlari aniq belgilanmaydi.
2. Ta'lim maqsadining talabalar darsning natijasi bilan to'g'ri kelmagan hollar bo'ladi.
3. O'rganish uchun tavsiya qilingan materiallar darsning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

4. O'qituvchi berayotgan yo'llanmalar talabaning darsda bilimlarni samarali o'rganishini ta'minlamaydi.

5. Dars rejasida ko'rsatilgan talablar dars maqsadini amalga oshirishning samarali vositasi bo'la olmaydi.

Umuman tuzilgan rejalar qayta ko'rib chiqilish va xatolarni bartaraf etish ustida ishlanishi lozim. Dars rejasi sizni va sizning talablaringizni ma'lum natijalarga erishishingizga asos bo'lishi lozim. Darsni shunday rejalashtirish lozimki uni boshqacha yo'l bilan amalga oshirishga o'rin qolmasin. O'qituvchi mahorati darsni aniq rejalashtirishda o'z aksini topadi. Darsni shunday rejalashtirish lozimki, unda nima qilinishi mo'ljallanayotganligini aniq o'z aksini topsin va boshqacha reja tuzish mumkinligiga o'rin qolmasin. An'anaviy o'qitish asosan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning rivojlanishini ko'zda tutmaydi.

An'anaviy o'qitish asosini, Y.A.Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika tamoyillari tashkil etadi:

- ilmiylik;
- tabiatga monandlik (o'qitish rivojlanish bilan belgilanadi va shakllanmaydi);
- uzviylik va tizimlilik;
- o'zlashtiruvchanlik (ma'lumdan noma'lumga, soddadan murakkabga);
- mustahkamlash (takrorlash, takrorlash ...)
- onglilik va faollik;
- nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;
- yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun uzluksiz ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Ta'lim jarayoniga tabaqalashtirilgan yondashuv, o'quvchilarni turli kasb-xunar kollejlari, akademik litseylarda taxsil olishlarini ta'minlash zamonaviy pedagogika fani oldiga yuksak vazifalarni qo'yimoqda. Masalan, ushbu o'quv muassasalari uchun davlat ta'lim standartiga muvofiq keluvchi o'quv dasturlarini va darsliklar, o'quv yo'llanmalarini yaratish bugungi kun talablariga javob bermog'i lozim. Har biri turli variantlarda bo'lsagina, maqsadga to'g'ri xizmat qila oladi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni tuzishda an'anaviy ta'lim va tarbiya metod va usullaridan qanday foydalanish mumkin. O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yangi uyni qurmasdan eskisini buzmaylik" iborasi ta'lim tizimiga ham bevosita taalluqlidir. O'quvchilar bilan an'anaviy o'qitish usulida bevosita aloqa, og'zaki so'rov, yozma ishlar olish, insho olish, mustaqil ishlar, rasm chizish, chizmachilik, amaliy ishlarni qog'oz, yog'och, yung, metall, plastmassa materiallaridan tayyorlash, she'r, monologlarni og'zaki bayon etish va boshqalarni albatta, ta'lim texnologiyasi metod va usullari bilan qo'shib foydalanamiz. Chunki har qanday interfaol usulini olib qarajak, ("Munozara", "Klaster", "Ajurli arra" yoki "Kichik guruhlar"da ishlash), hammasi an'anaviy ta'lim metod va usullarini qo'llashni talab etadi. Bu fikrimizning isbotini o'quv yo'llanmaning uchinchi qismida guvoh bo'lasiz.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Hozirgacha o'qituvchi – pedagoglarimiz tomonidan foydalanib kelingan va hozir ham darsda foydalanishga aksariyat o'qituvchilar qo'llayotgan an'anaviy metod va usullar haqida qisman to'xtalamiz: O'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Metod va usullar o'quvchilar tomonidan bilimlarni ongli va chuqur o'zlashtirishiga, ularda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga yordam beradi. O'qitish metod va usullarini tanlashda o'qitiladigan fanning xarakteri, bolalar va talabalarning yoshlik xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va boshqalar hisobga olinadi.

Ta'lim metodlari va usullarini tanlash o'qituvchi tomonidan darsda hal qilinishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Ya'ni yangi materialni bayon etishda bir xil metod va usul qo'llanilsa, uni mustahkamlashda boshqa xil usul, mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llaniladi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylangan va samarali usullar va metodlarni tanlash juda muhimdir.

Tushuntirish ayrim tushunchalar, voqealar, harakat prinsiplarini og'zaki talqin etishdir. Bu metodni qo'llash uchun avvalo o'qituvchi yangi materialni o'tishda o'qitadigan o'quv predmetining ilmiy mazmunini chuqur bilishi, dars uchun zarur materialni tanlay olishi va tushuntirishning samaradorligini belgilashi kerak. Darsni qiziqarli, mazmunli bo'lishini, o'quvchi va talabalarning psixologik yosh xususiyatlarini yaxshi bilishi, tushuntirishda diqqatini jalb eta olishi, o'qituvchining nutqi yorqin, tushunarli bo'lishi zarur.

Ma'ruza davomida beriladigan bilimni og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida o'quvchi – talabalarning diqqatini tutib turish hamda ularning fikrlashini faollashtirish, dalillash, isbotlash, tasniflash, ta'riflar berish, tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi. Ma'ruzalarga asosan talaba va kollej, akademik litsey o'quvchilari jalb qilinadi. Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini oliy o'quv yurtiga o'qishga tayyorlash maqsadida ayrim fanlardan ma'ruzalar tashkil qilinadi. Ma'ruza rejasini aniq o'ylab, uni texnologiyalashtirish zarur. Reja bandlerining barchasida, ularning har birining maqsad, yakun va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg'unlik bo'lmog'i kerak. Ma'ruza shunday sur'atda o'qiladiki, talaba, o'quvchi ma'ruzaning muhim joylarini yozaolsinlar. Shuning uchun ham o'qituvchi ma'ruzaning yozib olinadigan joylarini aniq ajratishi, zarur bo'lsa yozib olishlarini yengillashtirish uchun takrorlashi lozim. Ma'ruza zerikarli bo'lmasligi uchun talabalarning fikrini faollashtirish maqsadida ma'ruza davomida muammoli vaziyatlarni shakllantirish yaxshi pedagogik samara beradi.

Suhbat ta'limning keng tarqalgan usuli bo'lib, darsning istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Suhbatning bir necha xili mavjud bo'lib, ular yangi bilimlar berishda, bilimlarni mustahkamlashda, olingan bilimlarni tekshirishda, o'tilgan materialni takrorlashda qo'llanilishi mumkin. Suhbat uslubi atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi bilan talabalar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchi yoki talabaning fikrlash tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi. Suhbat uslubini qo'llaganda savollarni qo'yish (yo'naltiruvchi, qo'shimcha, asosiy va h.k.z) talabalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, suhbatdan chiqqan xulosalarni muhokama qilib, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi. O'qituvchi mavzuni muhokama qilish uchun imkon beruvchi yordamchi, yo'naltiruvchi savollardan foydalanishi mumkin. Shunday suhbatlar tashkil qilish mumkinki, talabalar ilgari o'zlashtirgan bilimlarini eslaydilar, ularni tartibga soladilar, umumlashtiradilar, xulosa chiqaradilar. Bunday suhbatlar asosan tushuntirish xarakteriga ega bo'lib, oldin o'zlashtirgan bilimlarga suyanadi. Talabalar xotirasini faollashtirishni nazarda tutadi.

XULOSA. Albatta, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bizning fanimizga endigina kirib kelmoqda. Aslida esa ta‘limga texnologik yondashuv masalasi rivojlangan demokratik xorijiy davlatlard bundan 30-yillar muqaddam paydo bo‘lgan va ular bu sohada katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Bugungi kunda biz pedagogika sohasidagi ilg‘or texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o‘zlashtirishimiz, ularni o‘z mintaqamizga mos holda qayta ishlab chiqishimiz kerak bo‘ladi. Pedagogik texnologiya tushunchasiga hozirgi kunda turlicha ta‘riflar berilmoqda. Muhimi shuki, pedagogik texnologiya ko‘zlagan maqsadga kafolatlangan natija sifatida erishishni ifodalovchi jarayondir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006-y
2. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. “Fan”. 2005.
3. Norov, I., & Uldawlet, D. (2021). Psychological mechanisms that increase the effectiveness of the educational process.
4. Norov, I. (2020). New Technologies in the Education System of the New Century. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR).